

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

YULDASHEV IQBOLJON RAXIMOVICH

**MEHNAT SHARTNOMASINI O‘ZGARTIRISHNI HUQUQIY
TARTIBGA SOLISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta‘minot huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Yuldashev Iqboljon Raximovich

Mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solish.....3

Юлдашев Икболжон Рахимович

Правовое регулирование изменения трудового договора.....21

Yuldashev Iqboljon Raximovich

Legal regulation of change of employment contract.....39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

YULDASHEV IQBOLJON RAXIMOVICH

**MEHNAT SHARTNOMASINI O‘ZGARTIRISHNI HUQUQIY
TARTIBGA SOLISH**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta‘minot huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Yu545 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (proacademy.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
yuridik fanlar doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich
yuridik fanlar doktori, professor v.b.

Rahimqulova Lola Ulug'muradovna
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish
markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 25-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi 42, Tel.: (99871) 202-04-96; faks: (99871) 202-04-96; e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (34-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 42, Tel.: (99871) 202-04-96).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 12-dekabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 12-dekabrda 14-raqamli reestr bayonnomasi).



M.M. Mamasiddiqov
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

D.S. Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.A. Aminjonova
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, yuridik fanlar doktori,
professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, davlatlardagi umuminsoniy va ichki moliyaviy beqarorlikning ortib borishi, iqtisodiy rivojlanish muammolari, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun mablag'larning yetishmasligi, raqobat muhitining kuchayib borishi, texnologiyalarning takomillashuvi, iste'molchilarning talablarini inobatga olgan holda tovar va xizmatlarning zamonaviy turlarini ishlab chiqarishga intilishning kuchayishi mehnat shartnomasi shartlarini belgilash va o'zgartirishga oid huquqiy munosabatlarni yangi mazmun bilan to'ldirishni talab qilmoqda.

Jahonda pandemiya sababli kelib chiqqan mehnat munosabatlari sohasidagi iqtisodiy va moliyaviy inqiroz 2022-2023-yillarga kelib nisbatan ijobiy tomonga o'zgardi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ning ma'lumotiga ko'ra, aholining bandligi va ishlab chiqarishdagi ishtiroki darajasi 2022-yil uchinchi choragida 69,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil oktabr holatiga 73,7 foizga ko'tarildi. Xodimlar yoki o'zini-o'zi ish bilan band qilganlar soni ham eng yuqori darajaga yetib, 607,9 million ishchini tashkil etdi. Ishsizlik darajasi ayollar uchun 5,1 foiz, erkaklar uchun 4,7 foiz bo'lib, dunyo miqyosida 4,9 foizni tashkil etdi¹. Xalqaro Mehnat Tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, 2022-yilda global ish vaqti 2019-yilning to'rtinchi choragi darajasidan (inqiroz gacha bo'lgan ko'rsatkich) 1 foizga past bo'ldi, bu 30 million to'liq kunlik ish o'rni taqchilligiga teng bo'ldi².

Respublikamizda 2019-2021-yillar oralig'ida pandemiyaning avj olishi, mehnat resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonining jadallashuvi, jahon siyosiy va iqtisodiy hayotida yuz berayotgan voqeliklar natijasida migratsiya tizimining murakkablashishi aholi bandligini ta'minlash hamda mehnatga oid munosabatlarni amalga oshirish davlat siyosatining asosiy e'tibor markaziga aylandi. Xalqaro nufuzli reyting tashkiloti WJP Rule of Law indeksiga ko'ra, 2023-yilning birinchi choragida O'zbekiston mamlakat hududi bo'ylab qonunlarning amal qilishi bo'yicha 140 davlat ichida 107-o'rinni egallagan. Mazkur indeksda asosiy mehnat huquqlari samarali kafolatlanganlik darajasi bo'yicha 0,53 ball bilan 140 davlat orasida 87-o'rinni, ya'ni o'rta ko'rsatkichdan ko'ra pastroqni tashkil etmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi 9,5 foizni tashkil etmoqda³. Mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlarini oshirish uchun mehnat munosabatlarida yuzaga keluvchi shartnomaviy munosabatlardagi kelishuvchanlik tartibini yanada takomillashtirish mazkur sohani kompleks tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, bugungi kunda mehnat resurslari qariyb o'n to'qqiz million kishiga yetdi, korxonalar soni esa so'nggi uch yilda ikki baravar oshdi. Amaldagi Mehnat kodeksi 1995-yilda qabul qilingan bo'lib, ushbu davrlarda xususiy sektor ulushi

¹ <https://www.oecd.org/newsroom/labour-market-situation-oecd-updated-january-2023.html>

² https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---dcomm/---publ/documents/publication/wcms_762_534.pdf

³ <https://www.imf.org/external/datamapper/LUR@WEO/OEMDC/ADVEC/WEOWORLD>

atigi 21 foiz bo'lgan, hozirda 83 foizdan oshgani qayd etildi. Shu bois, yangi kodeksda tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda, aholi bandligini oshirish bo'yicha ko'plab qulay sharoitlar ko'zda tutilmoqda¹.

Mamlakatimizda mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolar mavjudligini qayd etish o'rinlidir. Xususan, mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasini ochib berish, mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslarini ishlab chiqish, ish joyi va ish o'rniga ta'rif berish, boshqa ishga o'tkazish, bekor turib qolish va ishlab chiqarish zaruriyati kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish, boshqa ishga o'tkazish muddatlarini cheklash, mehnat shartnomasini o'zgartirishning yangi asoslari sifatida xodimlarning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi, ish beruvchining boshqa hududga ko'chishi munosabati bilan ish joyining (hududning) o'zgarishi bilan bog'liq tushunchalarni qonunchilikda aks ettirish vazifasi turibdi. Yuqoridagi omillar mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solish mavzusini tadqiq etishning dolzarbligini tashkil etadi.

Mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solish, bir tomondan, xodimlarning munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni kafolatlaydi, boshqa tomondan, majburiy mehnatning taqiqlanishida asosiy o'rin egallaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mehnat qonunchiligini bozor iqtisodiyoti shartlariga moslashtirishi, uni ancha moslashuvchan qilishi, mehnat va u bilan bevosita bog'liq munosabatlarni individual-shartnomaviy tartibga solishni sezilarli kengaytirishi, xodimlar va ish beruvchilar manfaatleri muvozanatini ta'minlashi lozim. Yuqoridagi fikr-mulohazalar mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solishga ham to'la taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (1995-y., 2022-y.), O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995-y.), "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi (2018-y.), "Aholi bandligi to'g'risida"gi (2020-y.), "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (2016-y.), "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (2019-y.) qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017-y.), "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022-y.), "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi (2023-y.) Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining "Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofaviy ish usulida, moslashuvchan ish grafigida yoki uyda ishlashga o'tkazishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ https://t.me/Press_Secretary_Uz/2603

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi maxsus monografik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Biroq huquqshunos olimlar tomonidan ushbu mavzuning ba'zi jihatlari o'quv adabiyotlarda va ilmiy maqolalarda aks etgan. Xususan, huquqshunos olimlar A.A. Inoyatov, M.A. Usmanova, Y. Tursunov, M.Y. Gasanov, Y.A. Sokolov, B. Djanbakiyev, G.D. Sattarova, Sh.A. Ismoilov, M.A. Raximov, X.A. Quchqarovlar muallifligidagi o'quv adabiyotlarida mehnat shartnomasini o'zgartirish mavzusi yoritib berilgan. Bundan tashqari, H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, O. Oqyulov, M. Mamasiddiqov, J.N. Raxmanbekov, Y.A. Raximovalar tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda shartnoma va bitimlarga oid muhim nazariy-metodologik qoidalar o'rin olgan.

MDH davlatlarida mehnat shartnomasini o'zgartirish bilan bog'liq tadqiqotlar V.V.Arhipov, M.A.Vishnyakova, G.B.Gamidli, S.Y.Golovina, K.N.Gusov, M.Y.Gusov, I.K.Dimitreva, A.M.Lushnikov, M.V.Lushnikova, T.Y.Kornusheva, V.I.Mironov, T.Nesterova, Y.P.Orlovskiy, T.V.Parpan, I.N.Pleshakova, A.Y.Petrov, G.G.Pashkova, M.A.Prokofev, V.V.Semenixin, O.V.Sgibneva, A.A.Sabitov, K.L.Tomashevskiy, V.N.Tolkunova, L.I.Filyushenko, Y.B.Xoxlov, J.A.Xamzina, A.D.Shevsov, Y.P.Sindyaykina, I.S.Sipkinalar tomonidan o'tkazilgan.

Xorijiy mamlakatlarda mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solish masalalari Simon Deakin (University of Cambridge), Muayad Kamal (University of Portsmouth), Melissa W. Barringer (University of Massachusetts), George T. Milkovich (Cornell University), Mark NK Saunders, Adrian Thornhill (University of Birmingham), Linda Weidenstedt (Stockholm University) tomonidan o'rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 2021-yil 31-martdagi 5-sonli majlisi bayonnomasida tasdiqlangan.

Tadqiqotning maqsadi mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solishni kompleks va qiyosiy o'rganish asosida mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mehnat shartlari tushunchasi hamda ularni mehnat shartnomasiga kiritish va o'zgartirishning umumiy qoidalarini ko'rib chiqish;

mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tushuncha sifatida ko'rib chiqish hamda uning mazmunini ochib berish;

mehnat shartnomasini o'zgartirishga olib keluvchi sabablarni aniqlash va

mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslarining ro'yxatini ishlab chiqish;
mehnat shartnomasini o'zgartirishda xodimlarning huquqlarini himoya qilishni ko'rib chiqish;
mehnat shartnomasini o'zgartirishning huquqiy oqibatlarini tahlil qilish;
mehnat shartnomasini o'zgartirishga oid turli tashkilotlar va sud amaliyotini o'rganish;
boshqa ishga o'tkazish tushunchasi va uning tasniflanishi bilan bog'liq qoidalarni o'rganish;
ish joyini o'zgartirish tartibi va asoslarini tahlil qilish va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;
mehnat shartnomasini o'zgartirishga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan tavsiya va takliflar ishlab chiqish;
mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solish sohasidagi xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani o'rganish.

Tadqiqotning obyekti mehnat shartnomasini o'zgartirish bilan bog'liq holda vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solishni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, xalqaro standartlar, yuridik fanda mavjud bo'lgan konsepsiyalar hamda ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tuzilmaviy, tahliliy, tarixiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, sotsiologik, empirik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mehnat shartnomasini o'zgartirishning asoslari ro'yxati ishlab chiqilib, ular mehnat shartlarining o'zgarishi, xodimning boshqa ishga o'tkazilishi, ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan joyning o'zgarishi, xodimning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi, mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishidan iborat ekanligi asoslab berilgan;

ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi xodimning yashash joyiga qaytish imkonini bermaydigan masofada joylashgan hududga ish beruvchining ko'chishi ekanligi hamda u mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishidan farq qiluvchi tushuncha ekanligi asoslab berilgan;

xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish xodimni bir yil muddatga boshqa ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzish va uning asosida birinchi ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga o'zgartirish kiritish orqali amalga oshirilishi asoslab berilgan;

ishlab chiqarish zaruriyati hamda bekor turib qolish ish beruvchining tashabbusiga ko'ra vaqtincha boshqa ishga o'tkazish asoslari ekanligi ko'rsatib berilgan hamda ularga huquqiy ta'riflar ishlab chiqilgan;

xodim aynan o'sha ish beruvchida ishni davom ettirganda uning mehnat vazifalarini (kasbi, lavozimi, malakasi va mutaxassisligini) o'zgarishi boshqa ishga o'tkazish ekanligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mehnat shartnomasini o'zgartirishga olib keladigan asoslar ro'yxati ishlab chiqilgan;

mehnat resurslaridan samarali foydalanish va bekor turib qolishning oldini olish maqsadida xodimni boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborishga oid qoidalar ishlab chiqilgan;

mehnat shartnomasini o'zgartirishda kasaba uyushmalarining ishtiroki mexanizmlarini takomillashtirish ko'rsatib berilgan;

mehnat shartnomasini taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha o'zgartirish asoslari ko'rsatib berilgan;

mehnat shartnomasini o'zgartirish orqali xodimlarni ishda olib qolishning imkoniyatlari ko'rsatilgan;

mehnat shartnomasini o'zgartirish jarayonida taraflar o'rtasida qo'shimcha kelishuvni amalga oshirish tartibi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlarning anketa, intervyu va ekspert baholash shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy natijalari mehnat huquqining mehnat shartnomasini o'zgartirish haqidagi ilmiy qarashlarni kengaytiradi, mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasi, mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslari va shakllari, boshqa ishga o'tkazishni belgilash usullari kabi muhim nazariy masalalarni hal qilishda ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflarni amalga oshirish mehnat shartnomasini o'zgartirishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qiladi, shuningdek xodimlar va ish beruvchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda mehnat munosabatlaridagi dinamikani ta'minlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Mehnat huquqi", "Mehnat nizolarini hal etish", "Qiyosiy mehnat huquqi" modullarini o'qitish, ish beruvchilar, xodimlar hamda kasaba uyushmalari uchun amaliy qo'llanmalar tayyorlash, Oliy sud Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

mehnat shartnomasini o'zgartirishning asoslari ro'yxatining, ya'ni mehnat shartlarining o'zgarishi, xodimning boshqa ishga o'tkazilishi, ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan joyning o'zgarishi, xodimning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi hamda mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishidan iborat ekanligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 133-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qonun ijodkorligi faoliyati to'g'risidagi 2022-yil 24-avgustdagi 12/21-56-son dalolatnomasi). Ushbu taklif

mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslarining kengaytirilgan ro'yxatini shakllantirishga xizmat qilgan;

ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi xodimning yashash joyiga qaytish imkonini bermaydigan masofada joylashgan hududga ish beruvchining ko'chishi ekanligi hamda u mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishidan farq qiluvchi tushuncha ekanligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 146-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 18-yanvardagi 04/2-10/5672-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar ish beruvchining boshqa hududga ko'chib o'tishini mehnat shartnomasini o'zgartirishning mustaqil asosi sifatida mehnat qonunchiligida aks ettirishga xizmat qilgan;

xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish xodimni bir yil muddatga boshqa ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzish va uning asosida birinchi ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga o'zgartirish kiritish orqali amalga oshirilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 147-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 18-yanvardagi 04/2-10/5672-son dalolatnomasi). Mazkur taklif xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborishni mehnat shartnomasini o'zgartirishning mustaqil asosi sifatida mehnat qonunchiligida aks ettirish uchun xizmat qilgan;

ishlab chiqarish zaruriyati hamda bekor turib qolish ish beruvchining tashabbusiga ko'ra vaqtincha boshqa ishga o'tkazish asoslari ekanligi hamda ularga berilgan huquqiy ta'riflar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 145-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 18-yanvardagi 04/2-10/5672-son dalolatnomasi). Mazkur taklif ishlab chiqarish zaruriyati hamda bekor turib qolish tushunchalarini mehnat qonunchiligida aks ettirishga xizmat qilgan;

xodim aynan o'sha ish beruvchida ishni davom ettirganda uning mehnat vazifalarini (lavozimi, kasbi, malakasi va mutaxassisligini) o'zgarishi boshqa ishga o'tkazish ekanligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 138-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qonun ijodkorligi faoliyati to'g'risidagi 2022-yil 24-avgustdagi 12/21-56-son dalolatnomasi). Ushbu taklif boshqa ishga o'tkazish tushunchasini mehnat qonunchiligida aks ettirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ta ilmiy maqola (3 ta xorijiy nashrda), 7 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 147 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Mehnat shartnomasini o'zgartirishning huquqiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida mehnat shartlari tushunchasi va ularni mehnat shartnomasida belgilash usullari, mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasi va uning asoslari, mehnat shartnomasini o'zgartirishning muhim huquqiy asosi sifatida mehnat shartlarining o'zgarishi kabi masalalar ochib berilgan.

Mazkur bobda mehnat shartlari tushunchasi tanqidiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, mehnat shartlari deganda, ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq xodimning mehnat faoliyati davomida amalga oshiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish omillarining jami tushunilib, ularni mehnat shartnomasini tuzish jarayonida belgilash usullari ko'rsatib berilgan. Mehnat shartlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi orqali belgilanishi aniqlandi. Bunda asosiy jihat mehnat shartnomasi zaruriy shartlari ro'yxatining qonunchilikda belgilab qo'yilganidir. Shu jihatdan mehnat shartnomasining fuqarolik huquqiy shartnomalardan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari borligi asoslandi.

“Mehnat shartlari” tushunchasini tadqiq etishda A.A.Inoyatov, M.Y.Gasanov, Y.Tursunov, M.A.Usmonova, Sh.A.Ismoilov, A.A.Sabitov, K.N.Gusov, V.N.Tolkunova, A.Y.Petrov, M.A.Prokofev, Nicola Smit, Muayad Kamal Mohammad Hattab kabi olimlarning qarashlari tahlil qilingan. Xususan, A.A.Sabitovning mehnat shartlarini ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasiga binoan xodimga ishonib topshirilgan ishning (mehnatning) texnik, texnologik va tashkiliy tavsiflari majmui sifatidagi ta'rifiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasi va asoslari tahlil qilindi. Xususan, mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasi bo'yicha huquqshunos olimlarning (A.A.Inoyatov, M.Y. Gasanov, Y.Tursunov, V.L.Geyxman, V.V.Semenixin, O.V.Sgibneva, E.B.Xoxlov, S.Deakin va boshqalar) fikrlari, xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Yaponiya, Vengriya, Gretsiya, Qozog'iston, Rossiya) qonunchiligi o'rganildi. Jumladan, huquqshunos M.A. Prokofev mehnat shartnomasini o'zgartirish deganda mehnat shartnomasi taraflari tomonidan tuzilgan va mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar

bo'yicha kelishilgan bir yoki bir nechta muhim shartlarning o'zgarishini tushunish lozimligini ta'kidlaydi. Tahlillarga asosan ushbu tushunchaga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, "mehnat shartnomasini o'zgartirish deganda mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha va tartibda xodim hamda ish beruvchi o'rtasidagi mehnat shartnomasining shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali mehnatga oid munosabatlarni taraflarning majburiyatlarini o'zgartirilgan holda saqlab qolish tushuniladi". Bundan tashqari mehnat shartnomasini o'zgartirishning asoslari o'rganilib, ularning ro'yxati mavjud emasligi aniqlandi. Mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslariga oid amaliyot va xorijiy tajribani o'rganish natijasida ularning ro'yxati ishlab chiqildi. Xususan, ularga mehnat shartlarining o'zgarishi, xodimning boshqa ishga o'tkazilishi, ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan joyning o'zgarishi, xodimning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi, mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishi, tashkilot mulkdorining almashganligi, uning qayta tashkil etilganligi, tashkilotning idoraviy taalluqliligi o'zgarganligi, xodimni ishdan chetlashtirish kabi asoslardan iborat ekanligi asoslab berildi.

Mazkur bobda mehnat shartlarining o'zgarishi – mehnat shartnomasini o'zgartirishning muhim huquqiy asosi sifatida tadqiq etildi. Mehnat shartlarining o'zgarishida xodimning ayni ishlab turgan ishi saqlanib qoladi, faqat ob'ektiv (texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmlarining qisqarganligi) va sub'ektiv (xodimning mehnat shartlarini o'zgartirish huquqi) sabablar mavjud bo'lganda, mehnat shartlarining ijtimoiy (mehnatga haq to'lash miqdori, ish vaqtining, ta'tilning davomiyligi va boshqa shartlar) hamda ishlab chiqarish omillari (texnika, sanitariya, gigiyenaga oid, ishlab chiqarish, maishiy va boshqa shartlar)ni inobatga olgan amalga oshirishni nazarda tutilishi lozimligiga e'tibor qaratildi.

Ish beruvchi ayrim toifadagi xodimlar uchun mehnat shartlarini o'zgartirish xususida korxonadagi xodimlarning vakillik organlari bilan oldindan maslahatlashuvni amalga oshirish tartibi haqida M.Y.Gasanov, G.D.Sattarova, X.Primqulov, X.Qo'chqorovlarning qarashlari, shuningdek Yaponiya va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligi o'rganildi. Jumladan, Yaponiya "Mehnat shartnomalari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ish beruvchi mehnat shartnomasini o'zgartirishi munosabati bilan o'zgartirilgan mehnat shartlari to'g'risida xodimni xabardor qilish, vujudga kelgan vaziyat xodimga tug'dirishi mumkin bo'lgan noqulaylik darajasini e'tiborga olishi, mehnat shartlarini o'zgartirish oqilonalik bilan amalga oshirilishi, o'zgartirilgan mehnat qoidalari mazmunining qonunga muvofiqligi, kasaba uyushmasi bilan muzokaralar olib borilganligi hamda mehnat shartlarini o'zgartirish bilan bog'liq boshqa holatlarga amal qilishi lozimligi belgilangan.

Mehnat qonunchiligida ish beruvchi tomonidan xodimning roziligisiz mehnat shartlarini o'zgartirishga faqat texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi, basharti bunday o'zgarishlar xodimlar soni yoki ishlar xususiyatining o'zgarishiga olib kelishi oldindan aniq bo'lgan hollarda amalga oshirilishi belgilangan bo'lib,

unga qo‘shimcha sifatida mamlakatda va mintaqada favqulodda holatlar e‘lon qilingan hollarni ham kiritish maqsadga muvofiqligi bo‘yicha takliflar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshqa ishga o‘tkazishni huquqiy tartibga solish”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshqa ishga o‘tkazish tushunchasi va uning tasniflanishi, xodimlarni boshqa ishga doimiy o‘tkazishning huquqiy tavsifi, boshqa ishga vaqtincha o‘tkazishni huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy masalalari tahlil qilingan.

Xususan, tadqiqot ishida “boshqa ishga o‘tkazish” tushunchasi mehnat qonunchiligida aks ettirilmaganligi hamda uning mehnat shartnomasini o‘zgartirishning boshqa turlaridan aniq farqlari belgilab berilmaganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli mazkur tushuncha bilan bog‘liq olimlarning turli fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Xususan, huquqshunos olimlar (A.A.Inoyatov, M.Y.Gasanov, O.V.Sgibneva, Y.Tursunov, M.V.Lushnikov, A.M.Lushnikova) tomonidan berilgan ta‘riflar tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligida (Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Moldova) belgilangan boshqa ishga o‘tkazish asoslariga oid normalarning o‘ziga xos xususiyatlari va ijobiy jihatlari o‘rganilib, qonunchilikda belgilash zarurati va huquqiy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Dissertant tomonidan milliy va xorijiy mamlakatlar mehnat qonunchiligini o‘rganish orqali quyida ko‘rsatilgan holatlarni boshqa ishga o‘tkazishning asosiy yo‘nalishlari sifatida tavsiflash va ularni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan:

birinchidan, boshqa ishga o‘tkazishning faqat bir ish beruvchi doirasida amalga oshirilishi hamda korxonada manzili o‘zgarganda xodimning mehnat munosabatlarini davom ettirishining huquqiy oqibatlarini;

ikkinchidan, xodimga mehnat shartnomasida kelishilganidan tashqari qo‘shimcha xizmat vazifalarining yuklanishi;

uchinchidan, xodimning roziligi boshqa ishga o‘tkazishni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida baholanishi;

to‘rtinchidan, boshqa ishga o‘tkazish va ish joyini o‘zgartirishning o‘zaro farqli jihatlari.

Xodim boshqa ishga o‘tkazilayotganda u o‘zi bajarish uchun o‘tkazilgan ishga kirishishi kerak bo‘lgan aniq sana belgilanishi kerak. Bunda boshqa ishga o‘tkazish qaysi muddatga amalga oshirilayotganiga qarab doimiy va vaqtincha o‘tkazishga ajratiladi. Ayniqsa, vaqtincha boshqa ishga o‘tkazishda muddatni belgilash eng asosiy jihat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida vaqtincha boshqa ishga o‘tkazishning muddatlariga aniqlik kiritilmagan. Shuni inobatga olgan holda vaqtincha boshqa ishga o‘tkazishni quyidagi turlarga ajratgan holatda muddatlarni belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

tarablarning kelishuviga ko‘ra – bir yil muddatga;

vaqtincha yo‘q bo‘lgan xodimning o‘rnini egallash munosabati bilan – xodim ishga chiqquniga qadar;

ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan – ikki oy muddatga.

Dissertant tomonidan mazkur bobda “ishlab chiqarish zaruriyati” va “bekor turib qolish” tushunchalari mohiyatini tahlil qilish bilan bog‘liq izlanish natijalari aks etgan. Jumladan, ushbu tushunchalarga M.Y.Gasanov, Y.Tursunov, V.V.Arhipovlar tomonidan berilgan ilmiy ta’riflar o‘rganilgan. Xususan, Y.Tursunov unga quyidagicha ta’rif beradi: “Ishlab chiqarish zarurati bo‘lib, tabiiy yoki texnogen tushunchadagi ofatlar va falokatlar sodir bo‘lishini oldini olish, basharti yuz bergan bo‘lsa, ularning oqibatlarini bartaraf etish, korxonaga uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy moddiy zararni oldini olish, insonlar salomatligi va hayotiga xavf soluvchi favqulodda omillarni bartaraf qilish, boshlangan ishni tugallash, texnologik rejimda uzilish sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, vaqtincha ishda yo‘q xodim vazifalarini bajarib turish kabilar sanalishi mumkin”. Bu orqali ishlab chiqarish zaruriyati hollarida mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilmagan boshqa ishga vaqtincha xodimning roziligisiz o‘tkazish uchun asos bo‘ladigan holatlar ro‘yxati shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Mehnat shartnomasini o‘zgartirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida mehnat shartnomasini o‘zgartirishning asoslari sifatida ish beruvchining boshqa joyga ko‘chishi, xodimning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi hamda ish joyi o‘zgarganda mehnat shartnomasini o‘zgartirish masalalarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

Mazkur bobda mehnat shartnomasini o‘zgartirishning yangi asosi sifatida xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish tushunchasi bo‘yicha xorijiy davlatlar (Qozog‘iston, Rossiya, Belarus, Sloveniya, Angliya) qonunchiligi va huquqshunos olimlar (V.P.Semich, M.A.Vishnyakova, S.Y.Golovina)ning fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Jumladan, xorijiy amaliyotda “secondment” tushunchasi mavjud bo‘lib, u inson resurslarini boshqarish sohasida qo‘llaniladigan ushbu atama asosiy ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarini saqlab qolgan holda boshqa ish beruvchiga vaqtincha o‘tkazishni anglatadi. Huquqshunos V.P.Semichning fikriga ko‘ra, ishchi kuchining malaka va tajribasini oshirishga imkoniyat yaratishini, shuningdek, ishlab chiqarishda vujudga keladigan turli muammoli vaziyatlarda xodimlarni ishdan bo‘shatilishini oldini olish chorasi hisoblanadi.

Ushbu tushunchaning yana bir o‘ziga xos jihati xodim bilan vaqtincha xizmat safariga yuborilgan ish beruvchi o‘rtasida alohida muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi va xodimning asosiy ish joyidagi mehnat shartnomasining amal qilishini to‘xtatib turishdir. Mehnat shartnomasini to‘xtatib turish asoslari qonunchilikda (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 503-moddasi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 41-moddasi) ayrim normalarida qayd etilgan bo‘lsa-da, alohida tartibda tushuntirish berilmaganligi va qanday munosabatlar mehnat shartnomasini to‘xtatib turishi lozimligi aks ettirilmagan. Ushbu asoslarni inobatga olgan holda mehnat qonunchiligida “mehnat shartnomasini to‘xtatib turish” asoslarini aks ettirish maqsadga muvofiqligi asoslandi va uning ta’rifi ishlab chiqildi.

Qonunchilikda mavjud bo'lgan xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborishga o'xshash "autstaffing" va "xizmat safari" tushunchalari tahlil qilinib, ularning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari o'rganildi.

Mazkur bobda "ish joyi" tushunchasini ochib berish bilan bog'liq izlanish natijalari aks etgan. Ish joyi tushunchasiga (M.Y. Gasanov, Y. Tursunov, Y.P. Sindyaykina, I.S. Sipkina, S. Sarper, Linda Weidenstedt) huquqshunos olimlar tomonidan berilgan ilmiy ta'riflar o'rganildi. Jumladan, Suzek Sarper ish joyi deganda ish beruvchi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish maqsadida xodimlar bilan moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqaradigan tashkilot hisoblanishini aytib o'tgan. Shuningdek, Tojikiston, Turkiya, Rossiya mehnat qonunchiligida belgilangan normalar o'rganildi. Ushbu o'rganishlar natijasida ish joyi tushunchasining mohiyati aniqlashtirildi hamda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ish joyi tushunchasi mavjud emasligini inobatga olgan holda alohida mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Xorijiy mamlakatlar mehnat qonunchiligini o'rganish jarayonida ish joyini o'zgartirish tushunchasi o'rnida asosan "ko'chirish" atamasi qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Mehnat qonunlari kodeksida (1971-y.) "ko'chirish" atamasidan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida esa aksincha, "ko'chirish" o'rnida "ish joyini o'zgartirish" atamasidan foydalanilmoqda. Huquqshunos olim M.Y. Gasanov bu atama "o'tkazish" atamasi bilan ohangdosh bo'lganligi uchun amalda ko'rsatilgan tushunchalarning aralashib ketishiga olib kelishi mumkinligi bilan izohlaydi. Ish joyini o'zgartirishning mazmun-mohiyatini tushunishda asosiy e'tibor beriladigan xususiyat bu – xodimning yangi bajaradigan vazifasi mehnat shartnomasida belgilanmaganligi va rozilik olishning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Xususan, huquqshunos olimi M.Y. Gusov "ish joyini o'zgartirishning asosiy xususiyatlari sifatida xodimning ish joyini va xodim ishlaydigan tarkibiy bo'linmani o'zgartirishga yo'l qo'yilishi, ish beruvchining o'zgarmasligi, tomonlar belgilagan mehnat shartnomasi shartlarining o'zgarmasligi, ish bajariladigan hududning o'zgarmasligi va xodimning roziligini olmasdan amalga oshirishni aytib o'tgan". Shu asosda ish joyini o'zgartirishning asoslari aniqlashtirilib, uning mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilmagan va mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishidan iborat bo'lishi asoslantirildi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy takliflar hamda xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Mehnat huquqi fanida mehnat shartnomasining subinstitutlari bo'lgan mehnat shartnomasini tuzish va mehnat shartnomasini bekor qilishning asoslari yaxshi ishlab chiqilgan. Xususan, mehnat shartnomasini bekor qilishning tugal asoslari ro'yxati mavjud. Biroq mehnat shartnomasini o'zgartirish asoslari haqiqatda mehnat shartnomasini o'zgarishiga olib keladigan sabablar bilan to'liq mos kelmaydi. Mehnat shartnomasining amalda o'zgarishiga olib keladigan bir

